

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

Oldingi tahrirga qarang.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI QO‘RIQLASH BOSH
BOSHQARMASI BO‘LINMALARI TOMONIDAN QO‘RIQLANADIGAN OBYEKTLAR
RO‘YXATINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

(qaror nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-maydagi 334-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son)

Jismoniy va yuridik shaxslar mulkini, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni ishonchli qo‘riqlashni ta‘minlashda yagona tamoyil va yondashuvlarni joriy etish hisobga olingan holda, qo‘riqlash faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek, qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini qo‘riqlashni tashkil etish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishi, shuningdek, davlat qo‘riqlash tashkilotlari faoliyatini nazorat qilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qo‘riqlash bosh boshqarmasi o‘z vakolatlari doirasida o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash, xarajatlarini qoplash va mustaqil xo‘jalik yuritish tamoyili asosida qo‘riqlash faoliyati xizmatlarini ko‘rsatish shartnomalariga asosan kelib tushadigan mablag‘lardan foydalangan holda davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlar, jismoniy va yuridik shaxslar mulkini qo‘riqlash vazifasini amalga oshirishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Oldingi tahrirga qarang.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar ro‘yxati **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-maydagi 334-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son)

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda belgilangan tartibda:

2020-yil yakuniga qadar ushbu qaror bilan tasdiqlangan ro‘yxatga asosan obyektlarni bosqichma-bosqich qabul qilinishi va qo‘riqlanishini;

2020-2021-yillar davomida qo‘riqlanadigan obyektlar texnik jihatdan jihozlanganligi xatlovdan o‘tkazilib, uning natijalari asosida obyektlarni zarur muhandislik-texnik vositalar bilan qo‘shimcha jihozlash yuzasidan choralar ko‘rilishini ta‘minlansin.

4. Belgilansinki:

ushbu qaror bilan tasdiqlangan ro‘yxat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, shuningdek, ularga bo‘ysunuvchi yuridik shaxslar tomonidan o‘z vakolatlari doirasida qo‘riqlanadigan obyektlarga tatbiq etilmaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

jismoniy shaxslarga va tadbirkorlik subyektlariga tegishli obyektlar qonunchilik hujjatlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa, ularning ixtiyoriga ko‘ra tuzilgan shartnomalarga asosan qo‘riqlanadi.

(4-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — moliya vaziri J.A. Qo‘chqorov va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni B.X. Tashmatov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2019-yil 21-noyabr,
930-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi 930-son qaroriga
ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar

RO‘YXATI

(ilova nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-maydagi 334-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son)

Oldingi tahrirga qarang.

I. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi saf bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar

(I bo‘lim nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-maydagi 334-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanadigan o‘ta muhim, toifalangan va davlat ahamiyatidagi boshqa obyektlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining davlat rezidensiyalariga xizmat ko‘rsatish va tadbirlarini tashkil etish boshqarmasining obyektlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va agentliklar.

3. Vazirliklar va idoralarning ma‘muriy binolari, shuningdek, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati organlarining obyektlari (qonunchilikka muvofiq idoraviy qo‘riqlash bo‘linmalari mavjud bo‘lgan obyektlar bundan mustasno).

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi binolari.

5. O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari va muassasalarining binolari va obyektlari, O‘zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasi organlaridan tashqari.

6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining sud-tibbiyot ekspertiza muassasalari, psixiatriya muassasalari, surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki toksikomaniyaga muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolashga mo‘ljallangan maxsus davolash-profilaktika muassasalarining binolari va inshootlari.

Oldingi tahrirga qarang.

6¹. Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi huzuridagi Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha respublika, hududiy va tumanlararo namunali markazlari.

(6¹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-avgustdagi 438-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son)

7. Respublika hududida faoliyat ko‘rsatayotgan banklarning obyektlari.

Oldingi tahrirga qarang.

8. Fuqaroviy va xizmat qurollari, ularning o‘q-dorilari saqlanadigan va realizatsiya qilinadigan obyektlar (inshootlar, binolar, xonalar, hududlar), agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha belgilanmagan bo‘lsa.

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Oldingi tahrirga qarang.

9. Portlovchi va zaharli moddalar, ularni qo‘llagan holda ishlab chiqarilgan materiallar va mahsulotlarni, shuningdek, portlatish vositalarni hamda pirotexnika buyumlarini transportda tashish,

saqlash va realizatsiya qilish amalga oshiriladigan obyektlar (inshootlar, binolar, xonalar, hududlar), agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha belgilanmagan bo'lsa.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

10. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari saqlanadigan, tadqiqotlar o'tkaziladigan, ishlab chiqariladigan tashkilotlar obyektlari, shu jumladan, sog'liqni saqlash va farmatsevtika sanoatining ilmiy-tadqiqot tashkilotlari (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga asosan).

11. Quvvati 200 megavatt dan yuqori bo'lgan gidroelektrostansiyalar va issiqlik elektrostansiyalari hamda quvvati 100 megavatt dan yuqori bo'lgan shamol va quyosh fotoelektr stansiyalari.

12. Neft-gaz va gaz kondensati konlari, konlardagi va konlararo magistral quvurlar, shuningdek, neft-gaz tarmog'ining ishlab chiqarish va qurilish maydonlari*.

13. Qimmatbaho metallar konlari, ularning elektr energiyasi va suv ta'minoti obyektlari, shuningdek, kon-metallurgiya tarmog'ining yordamchi inshootlari*.

14. Sig'imi 800 kishi va undan ortiq bo'lgan konsert, ommaviy tomoshalar o'tkaziladigan saroylar va zallar.

15. Teleko'rsatuv va radioeshittirishni amalga oshirish obyektlari, "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining "Toshkent shahar telefon tarmog'i" AJ filiallari binolari, inshootlari va qurilmalari.

16. Dehqon (oziq-ovqat) bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga asosan.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi obyektlari, shu jumladan, atom elektr stansiyasi qurilish maydonlari va yordamchi obyektlari, shuningdek, "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining Toshkent shahar filiali.

Oldingi tahrirga qarang.

18. Davlat muzeylari, muzey-qo'riqxonalar, shu jumladan tarixiy va madaniy meroslar saqlanadigan joylar, arxeologik qazilma joylari (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga asosan).

(18-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 209-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son)

19. Davlat nazoratiga olinishi kerak bo'lgan radioaktiv moddalar va radioaktiv chiqindilar, shuningdek, ionlashtiruvchi nurlanish manbalari foydalaniladigan, qayta ishlanadigan, ishlab chiqariladigan, saqlanadigan ishlab chiqarish (shu jumladan, sement ishlab chiqarish) korxonalari.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan belgilanadigan jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan boshqa obyektlar.

Oldingi tahrirga qarang.

II. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasining texnik qo'riqlash vositalari monitoring va nazorat markazlari tomonidan texnik qo'riqlash vositalari yordamida qo'riqlanadigan obyektlar

(II bo'lim nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-maydagi 334-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son)

1. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarini saqlash va sotish joylari, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, dorixonalar.

2. Pirotexnika buyumlari saqlanadigan va sotiladigan obyektlar (inshootlar, binolar, qurilmalar).

3. Fuqaroviy va xizmat qurollarini, ularning o'q-dorilarini saqlash joylari.

4. Davlat nazoratiga olinishi kerak bo'lgan portlovchi va radioaktiv moddalar hamda ionlashtiruvchi nurlanish manbalari saqlanadigan joylar.

5. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar tashkilotlarining kirish cheklangan xonalari.
6. Qimmatbaho metallar (toshlar)ni saqlash va realizatsiya qilish obyektlari (omborlar, do'konlar).
7. Banklar va ularning filiallarining naqd va naqdsiz pul aylanmalari amalga oshiriladigan kassa xonalari.
8. Arxiv hujjatlari doimiy va vaqtincha saqlanadigan arxiv omborlari xonalari, shuningdek, davlat organlari va boshqa yuridik shaxslarning maxsus tartibotli obyektlari.
9. Davlat tarix va san'at muzeylari.
10. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari**.
11. Diniy tashkilotlarning obyektlari (masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar)**.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan belgilanadigan jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan boshqa obyektlar.

* Yoqilg'i-energetika va kon qazish tarmog'ining qo'riqlanadigan obyektlari tegishli vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda obyektlarning faoliyat ko'rsatish xususiyatlari, geoiqtisodiy va viktimologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi va vazirliklar, idoralar va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qo'riqlash bosh boshqarmasi hamda uning hududiy boshqarmalari o'rtasidagi ikki tomonlama qarorlarga (shartnomalarga) asosan qo'riqlashga topshiriladi.

** Umumiy o'rta ta'lim muassasalari va diniy tashkilotlarning obyektlari "tashvish tugmalari" bilan jihozlanadi.

Izoh.

1. Muayyan obyekt (I bo'lim 1-bandida ko'rsatilganlardan tashqari) qo'riqlashni tashkil etish tizimi (qo'riqlash turi, usuli, post-yo'nalishlar soni, qo'riqlash vaqti, ichki, kirib-chiqish ruxsatnoma rejimi, video-kuzatuv, signalizatsiya va boshqa muhandislik-texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlanishi) tomonlarning vakillari ishtirokida bevosita joyiga chiqib, mazkur obyektning texnik vositalar bilan jihozlanganligi, uning faoliyati turi va o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

2. Obyektlarni ular tegishli bo'lgan tashkilotning idoraviy mansub qo'riqlash xizmati bilan birgalikda ushbu tashkilot ahamiyatiga qarab qo'riqlashga ruxsat etiladi. Bunda ko'rsatib o'tilgan obyektlarda o'rnatilgan texnik qo'riqlash vositalari va tizimlari O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasining bo'linmalari tomonidan nazorat qilinadi.

(izohning 2-bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-maydagi 334-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son)

3. Banklar va ularning filiallarini qo'riqlashni tashkil etish shartlari O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Markaziy bank tomonidan birgalikda tasdiqlangan qoidalarga asosan belgilanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

4. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasining bo'linmalari tomonidan ikki tomonlama shartnomalarga asosan obyektlarni qo'riqlash bilan bir qatorda tranzit yuklarni, transportdagi moddiy boyliklarni, portlovchi, radioaktiv (zaharli) va boshqa vositalarni qurolli qo'riqlash-kuzatish amalga oshirilishi mumkin.

(izohning 4-bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-maydagi 334-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2019-y., 09/19/930/4046-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2021-y., 09/21/334/0507-son, 07.10.2021-y., 09/21/624/0940-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 23.04.2022-y., 09/22/209/0341-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son)